



Sevara SAFAROVA,
Shaxrisabz davlat pedagogika instituti magistranti
E-mail: sevarasafarovaa86@gmail.com

DSc, dotsent M.Boltayeva taqrizi asosida

DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE ABILITIES THROUGH DIGITAL TECHNOLOGIES

Аннотация

This article examines the main tasks facing the education system in the era of globalization – the development of students' independent thinking, creative approach, and ability to generate innovations. It emphasizes the necessity of integrating ICT tools as an essential part of the educational process, since we live in an age of rapidly advancing digital technologies. This process has strategic importance for Uzbekistan, as the digitalization of education becomes a vital component of the country's development through the harmonious combination of state policy, economic progress, medical research, accumulated experience, modern technological innovations, and human resources.

Key words: ICT tools, projector, multimedia, digital technology, innovative project, creativity, transformation, interactive, AutoCAD, TinkerCAD.

ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ С ПОМОЩЬЮ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация

В данной статье рассматриваются основные задачи, стоящие перед системой образования в эпоху глобализации — формирование у учащихся самостоятельного мышления, творческого подхода и способности к созданию инноваций. Подчеркивается необходимость превращения средств ИКТ в неотъемлемую часть образовательной сферы, поскольку мы живем в век стремительного развития цифровых технологий. Этот процесс имеет стратегическое значение для Узбекистана, так как цифровизация образования становится важнейшей составляющей развития страны благодаря гармоничному сочетанию государственной политики, экономического прогресса, научных исследований в медицине, накопленного опыта, современных технических новшеств и человеческих ресурсов.

Ключевые слова: средства ИКТ, проектор, мультимедиа, цифровая технология, инновационный проект, творчество, трансформация, интерактив, AutoCAD, TinkerCAD.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA O'QUVCHILARNING IJODKORLIK QOBILİYATLARINI SHAKILLANTIRISH

Аннотация

Ushbu maqolada globallashuv davrida ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri - o'quvchilarda mustaqil fikirlash, ijodiy yondashuv va yangilik yaratish qobiliyatlarini shakillantirish to'g'risidagi asosiy vazifalar ko'rib chiqilgan. Raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanayotgan asrda yashar ekanimiz AKT vositalarini ta'lim sohasini ajralmas qismiga aylantirishimiz zarurligi ta'kidlangan. Bu jarayon O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega, chunki davlat siyosati, iqtisodiy ravnaq, tibbiyotdagi izlanishlar, yaratilgan tajribalar, zamonaviy texnik yangiliklar va inson resurslari uyg'unligida ta'lim sohasini raqamlashtirishni mamlakatimiz taraqqiyotini ajralmas qismiga aylantiradi.

Kalit so'zlar: AKT vositalari, proyektor, multimediya, raqamli texnologiya, innovatsion loyiha, ijodkorlik, transformatsiyalash, interaktiv, AutoCAD, TinkerCAD.

Kirish. Mamlakatimizdagi axborot texnologiyalari sohasidagi tashkilotlarning o'quv jarayonlariga qatnashishini rag'batlantirish orqali umum ta'lim maktablarida informatika fani o'qitish metodlarini takomillashtirish, ayni paytda esa, iqtidorli IT- mutaxassislarini o'qitish, qo'llab- quvvatlash va ularni targ'ib qilish hamda mamlakatimizda iqtidorli kadrlarning chiqib ketish bilan bog'liq holatlarni oldini olish uchun ularning rivojlanish, unib-o'sishi uchun munosib imkoniyatlar yaratish nihoyatda muhim vazifadir.

Darhaqiqat O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalar qatorida ta'lim sohasida ham tubdan islohotlar olib borildi. Jumladan, informatika darslarini o'qitishda raqamli texnologiyalarning kirib kelishi bugunga yaqqol misol bo'la oladi. Har bir sohada bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham rivojlangan davlatlar metodlarini qo'llash davomida darsliklarni dunyo tajribalariga mos holda mukammallashtirish, yangiliklarni joriy etish uchun bosqichma-

bosqich informatika honalarini kopyuter, multimediya vositalari ,projektorlar, CD, DVD playerlar bilan ta'minlash davlatimiz oldidagi dolzarb masala sifatida qaraldi .Raqamli texnologiyalarning kirib kelishi o'qituvchilar va o'quvchilar uchun chinakam yangilik bo'ldi. Yosh avlodning bu yangi bilimlarni o'zlashtirishlari qiyin bo'lmadi, kopyuterlashtirish va internet orqali ma'lumot olish davratimizda yaxshi samara berdi. Microsoft Office (Word, Excel, Power Point) kabi dasturlarni o'qituvchilar tomonidan o'rganilishi ta'lim tizimidagi transformatsiyalash bosqichida muhim o'rin egalladi, darslarni raqamli texnologiyalar asosida tashkillashtirish, zamonaviy ta'lim metodlari va yagona onlayn platformada ishlashga asos bo'la oldi.

Shu o'rinda eslatib o'tish lozimki, raqamli texnologiyalarni ta'limda qo'llanilishi o'qitish samaradorligini oshiradi, vaqtni tejaydi va o'quvchilar bilimlarini chuqurroq o'zlashtirishlariga yordam beradi. Multimediya vositalari orqali

o'rganish jarayonida inson miyasi ma'lumotlarni uzoq muddatli hotirada saqlaydi- bu usul an'anaviy o'qitishdan ikki barobar samaraliroq ekanligi aniqlangan. Kelajakda raqamli texnologiyalar yordamida shaxsga yo'naltirilgan, interaktiv va avtomatlashtirilgan o'qitish jarayonlari kengayib boradi. Bu nafaqat bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki o'qituvchilarga ham yangi metodik yondashuvlarni joriy etish imkonini beradi.

Informatika fanidan so'ng keng ko'lamda boshqa fanlarni ham zamonaviy multimediya materiallaridan foydalanib o'qitish metodlari ishlab chiqildi va maktablarni projektorlar, elektron darsliklar, interaktiv doska kabi AKT vositalari bilan ta'minlandi. Bu esa darslarni sifatli va samarali tashkil qilinishiga asos bo'lib hizmat qila boshladi. O'tkazilgan ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki kopyuter texnologiyalari yordamida o'quvchilar bilimlarni ikki barobar tezroq o'zlashtiradilar, 30% vaqt tejaydi va o'rganilgan bilimlarni uzoq muddat hotirada saqlaydilar. Agar taqdim etilayotgan materiallar audio, video yoki grafik ko'rinishda bo'lsa, u holda bilimlarni eslab qolish darajasi 75% foizgacha oshadi. Multimedia vositalaridan maktabgacha ta'lim platformalarida qo'llashimiz maktabga chiqayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qishni, yozishni, sanash, qo'shish, ayirish kabi sodda amallarni har xil o'yinlar orqali o'rganib chiqishmoqda. Shu jarayonlarni davom ettirgan holda bevosita onlayn dasturlar bilan ta'minlangan darsliklar o'quvchilarni bilim olishlari osonlashtiriladi. Darsliklarda ishlatilayotgan yuqori darajadagi grafik texnikalar bolalar qiziqishlarini yanada kuchaytiradi.

O'zbekiston 2030 yilgacha mo'ljallangan raqamli ta'lim strategiyasi asosida ta'lim muassasalari texnik bazasi takomillashtirilmoqda, IT Park, oliy o'quv yurtlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik kengaymoqda. Lekin, hali ham echilishi lozim bo'lgan masalalar mavjud: pedagoglar malakasini oshirish, mintaqaviy raqamli tengsizlikni bartaraf etish va samarali monitoring tizimini yo'lga qo'yish.

Raqamli texnologiyalarning barcha fanlarda qo'llash, masalan ingliz tili, matematika, tabiiy fanlar, texnologiya va chizmachilik fanlarida yaxshi natija berdi. Tabiiy fanlarni video va onlayn dasrlar orqali o'tilishi ularga bu fanlarda olib borilayotgan tajribalar, yangiliklar haqida to'liq, tushunarli bilim olishlari va yaxshi tasavvur ega bo'lishlarini ta'minladi. Ingliz tilida audio darslarni tashkillashtirilishi bu tilda o'quvchilarni sifatli so'zlashishlariga va o'zga tillarni tezroq, mukammalroq o'rganishlariga zamin yaratdi. Texnologiya, chizmachilik, tasviriy san'at darslarini zamonaviy multimediya vositalari bilan o'tilishi eng katta yutuqlarga sabab bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi, chunki bu fanlarni amaliy darslarini tahsil qilishda, ko'nikmalar hosil qilish uchun ularni virtual olamga sayohatlarining tashkil qilinishi ularda juda katta qiziqish uygotish bilan birga ularni ijodkorlik salohiyatini kuchaytiradi. Bu fanlarni o'qitishda yaratilgan qator dasturlar yordamida o'quvchilarning amaliy mehnat ko'nikmalari, qiziqishlari, global estetik tafakkurlari tobora rivojlanib bormoqda. Texnologiya fanini o'qitishda AutoCAD, TinkerCAD dasturlaridan foydalanib robotatexnika

darslarini o'tishimiz bolalardagi bor resurslardan foydalanib ulardagi bilimlarni kuchaytiramiz ijodkorlik faoliyatiga yo'l ochamiz. Bu jarayonlar o'quvchilarda yaratuvchanlik ko'nikmalarini shakillantiradi, texnik salohiyatlarini ro'yobga chiqaradi, shu bilan bir qatorda kelajak kasbiy faoliyatiga zamin yaratadi. Amaliy fanlarni zamonaviy texnologiyalar yordamida o'tish o'quvchilarda nafaqat amaliy ko'nikmalarni shakillantiradi, balki o'z fikrini grafik va visual shakilda ifodalashni o'rgadilar, natijada, ular raqamli asr talablariga javob bera oladigan, ijodkor va texnik jihatdan yetuk shaxs sifatida shakillantiradi.

An'anaviy dars o'tish metodi va zamonaviy texnika vositalari bilan dars o'tish usullarini farqlari tahlil qilinganda, natijalar shuni ko'rsatdiki:

1. Muammoli ta'lim, interfaol metodlar, STEAM va gamifikatsiya kabi inovatsion yondashuvlar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

2. Tanqidiy fikrlash va ijodiy yozuv texnikalari orqali o'quvchilarda o'z fikrlarini erkin ifodalash va yangi g'oyalarni ilgari surish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

3. Loyiha asosida o'qitish, hamkorlik, mustaqil tadqiqot va real muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Teskari ta'lim va raqamli texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirishga, shuningdek, individual yondashuvni ta'minlashga hizmat qiladi.

Umuman olganda ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilayotgan tanlovlar, ko'rgazmalar, konkurslar o'quvchilardagi ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishlariga asos bo'lmoqda. 2024-yilning 1- oktabridan boshlab, O'zbekiston bo'ylab "Ixtirochilikka qadam" tanlovining birinchi bosqichi rasman boshlandi. Bu bosqichda maktab o'quvchilari ta'lim, axborot texnologiyalari, yashil energiya, ekologiya va qishloq xo'jaligi kabi yo'nalishda ijodiy g'oyalarni namoyish etishlari mumkin. Ishtirokchilar o'z loyihalarini maktab miqqiyosida taqdim etib, g'oliblar keying bosqichlarga yo'llanma oladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.04.2024-yildagi "Ijod maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PQ-147- son qarori qabul qilindi. Bu chiqarilgan qarorlarda amaliy fanlar bo'yicha iqtidorli o'quvchilarni saralash, ularni rag'batlantirish va boshqa o'quvchilarga o'rnak bo'lishlari uchun zamin bo'lmoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, mashhur psixolog Lev Vigotskiyning ko'plab o'tkazilgan tadqiqotlaridan kelib chiqib, kreativ tafakkur bolalarning til va mulqot, atrof muhitni yaxshiroq anglash orqali shakillanadi. Zamonaviy texnika vositalari yordamida bolalarga dars o'tishimiz, o'quvchilarda o'z tajribalarini sinab ko'rishga, yangi goyalarni yaratishlariga zamin yaratadi. Biz pedagoglar metodik asosda o'quvchilarga barcha AKT vositalaridan to'g'ri, samarali foydalanish va internet bazalardan innovatsion yangiliklar uchun ishlatishlariga mas'ul bo'lmog'imiz kerak.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashr. – Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti, 2023- 416 bet.(186)
2. Rapp, C., & Kauf, P. (2018). Digital management solutions in education.
3. Ro'zmat To'ramurodovich. "Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari". 16.05.2025. uzmarkaz.uz sayti.
4. Xujayarova Nafisa Sultonmurodova. Raqamli va zamonaviy texnologiyalar orqali o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini, ko'nikmalarni shakillantirish. International journal of science(2025y)(269-299b)
5. Ixtirochi pima. uz internet sayti.
6. Lex. Uz internet sayti.